



IQTIDORLI TALABALAR, MAGISTRANTLAR, TAYANCH DOKTORANT VA DOKTORANTLARNING “TAFAKKUR VA TALQIN”

MAVZUSIDAGI RESPUBLIKA MIQYOSIDAGI ILMIY-AMALIY ANJUMAN TO‘PLAMI



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

MAGISTRATURA BO‘LIMI

**IQTIDORLI TALABALAR, MAGISTRANTLAR,
TAYANCH DOKTORANTLAR VA
DOKTORANTLARNING**

TAFAKKUR VA TALQIN
mavzusida

*respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy
anjuman to‘plami*

Buxoro 2025-yil, 15-may

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, O'zbekiston Respublikasi mustaqillikni qo'lga kiritishi bilan G'arbiy Yevropa davlatlari orasida ham o'zining strategik mavqeiga ega bo'lib, ular bilan erkin diplomatik, iqtisodiy, ijtimoiy sohalarida bir qator shartnomalar, kelishuvlar amalga oshira olgan. So'nggi yillarda ikki tomonlama iqtisodiy aloqalarni, xususan, qayta tiklanadigan energiya manbalari, logistika va infratuzilmani rivojlantirish sohalarida yanada mustahkamlash va diversifikatsiya qilish bo'yicha sa'y-harakatlar amalga oshirilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

- 1.Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. T. 1. - Toshkent: O'zbekiston.. 2017
- 2.Usmonov Q. O'zbekistonning jahon hamjamiyatiga integrasiyalashuvi. –Toshkent: Moliya, 2003.
- 3.N.Oblamurodov. F.Tolipov. O'zbekistonning eng yangi tarixi. Darslik. – Toshkent: Iqtisod-moliya, 2022.
- 4.R.H. Murtazayeva O'zbekistonda millatlararo munosabatlar va tolerantlik. Darslik. - Toshkent: Mumtoz so'z, 2019.
- 5.O.Q.Alimardonov. O'zbekistonning eng yangi tarixi: tashqi siyosatning ustuvor yo'nalishlari (o'quv qo'llanma). - Toshkent, FAST SUPPORT AND RESULT, 2023.

BUXORO XONLIGIDA SHAYBONIYLAR DAVRIDA ILM FAN TARAQQIYOTI

Nargiza Isomiddinova Xusniddin qizi

*Buxoro davlat universiteti "Tarixshunoslik, manbashunoslik
va ilmiy tadqiqot usullari" mutaxassisligi 2-bosqich magistranti*

nargizaisomiddinova4@gmail.com

Feruza Bobojonova Xayatovna

BuxDU Buxoro tarixi kafedrası dotsenti, tarix fanlari nomzodi

f.x.bobojonova@buxdu.uz

Annotatsiya. Ushbu maqolada Buxoro xonligida Shayboniylar davlatining hokimyat tepasiga kelishi, ilm-fan, madaniyat va san'at borasidagi tushunchalar, ilmiy-madaniy hayotining shakllanishi va rivojlanishida Temuriylar davridagi ta'lim tizimining o'rnini, Shayboniy hukmdorlar faoliyati, maktab, masjid, madrasalarning qurilishi va faoliyati, bu davrda yaratilgan asarlar, Buxoro xonligida XVI asrdagi ta'lim tizimidagi yutuqlar va kamchiliklar haqida fikrlar va xulosalar yoritilgan.

Kalit so'zlar: Shayboniylar, masjid, madrasa, ilm-fan, she'riyat, san'at, madaniyat, obida, Ulug'bek akademiyasi, asar, arab tili, diniy bilimlar, dunyoviy bilimlar, fan, tarix, husnixat, handasa, ilmi nujum, falakiyot.

Аннотация. В данной статье рассмотрены приход к власти государства Шайбани в Бухарском ханстве, концепции науки, культуры и искусства, роль системы образования в период Тимуридов в становлении и развитии научной и культурной жизни, деятельность Правители Шайбани, строительство школ, мечетей, медресе и деятельность, произведения, созданные в этот период, мнения и выводы о достижениях и недостатках образовательной системы в Бухарском ханстве в XVI веке.

Ключевые слова: Шайбани, мечеть, медресе, наука, поэзия, искусство, культура, памятник, Академия Улугбека, труд, арабский язык, религиозные знания, мирские знания, наука, история, уснихат, хандаса, астрология, катастрофа.

Kirish. XVI asrning boshlarida dunyo xaritasida yangi bir davlat paydo bo'ldi. Bu Shayboniylar davlati edi. Mazkur davlat XV asr o'rtalarida Temuriylar davlati o'rnida Dashti Qipchoqdan kelgan Abulxayrxon boshchiligidagi ko'chmanchi o'zbeklar tomonidan qurildi.

E'tiborli tomoni shundaki, Muhammad Shayboniyxon ko'chmanchi o'zbeklarni siyosiy jihatdan birlashtirib, yangi davlat tizimini barpo qila oldi. Muhammad Shayboniyxon katta jismoniy kuch va harbiy tashkilotchilik qobiliyatiga ega bo'lib, u haqda o'z davrida yaratilgan tarixiy asarlarda ko'plab muhim ma'lumotlar keltiriladi. Ushbu ma'lumotlarda Muhammad Shayboniyxon iste'dodli shoir va zamonasining o'qimishli, bilimdon kishilaridan biri sifatida tasvirlangan. U hokimiyatni qo'lga olgunga qadar, Buxoro madrasalarida ta'lim olib, diniy hamda dunyoviy ilmlarni puxta o'rgangan. Tarixiy asarlarda keltirilishicha, Muhammad Shayboniyxonga mashhur diniy ulamo-lardan Muhammad Xitoyi ustozlik qilganligi aytib o'tiladi.²⁵⁴ Shayboniyxonning yetuk shaxs sifatida shakllanishida, albatta, temuriylar tomonidan Movarounnahrda yaratilgan o'ziga xos ilm-fan va madaniyatning ham o'rni katta bo'ldi.

Adabiyotlar va manbalar. Bu davrda yaratilgan Muhammad Solih (1455-1535) ning turkiy tilda yozilgan "Shayboniynoma", Fazlulloh ibn Ro'zbexon (1457-1530) ning "Mehmonnomayi Buxoro", Kamoliddin Binoiy (1453-1512) ning "Shayboniynoma", Sayyid Hasan xoja Nisoriyning Muzakkiri ahbob" kabi asarlari yaratildiki, ular hozirgi kungacha Shayboniylar davri haqida qimmatli ma'lumotlar beruvchi manbalar sifatida o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Ana shunday manbalardan biri mashhur shoir va adabiyotshunos, musiqachi, xattot Sulton Muhammad Noyi Mutribiy Samarqandiy (1559-1630) tomonidan 10605-yilda yozilgan "Tazkirat ush-shuaro" asari bo'lib, B.Ahmedovning fikricha ushbu asarda XVI asrning ikkinchi yarmida Movarounnahrda faoliyat ko'rsatgan 320 dan ortiq shoir haqida ma'lumot va asarlaridan namunalar keltirilgan. Asar avvalida muallif shoirlik va she'riyatga aloqador bo'lgan 17 nafar shayboniy sultonlari haqida ma'lumotlar keltiradi va "ularning ba'zilar bilan tanish edim va ularni shaxsan bilardim, ba'zilarining esa xizmatida bo'lgan edim"²⁵⁵ deb yozadi.

Muhokama va natijalar. Shayboniylar davlatining ilm-fan, madaniyat va san'at borasidagi tushunchalarning asosiy manbai, shubhasiz, temuriylar saroyining madaniy faoliyati edi. Shu boisdan ham shayboniylar ilmiy-madaniy hayotining shakllanishi va rivojlanishini anglashda temuriylar modelining ta'siri katta ahamiyatga ega bo'ldi. Shayboniylar Abulxayrxon davridan boshlab ilm-fan, madaniyat va san'at faoliyatiga katta ahamiyat berishdi. Bu holatni Abdulatifxonning saroy tarixchisi bo'lgan Ma'sud ibn Usmon Ko'histoniy tomonidan yozilgan "Tarixi Abulxayrxon" nomli asaridan ham bilib olishimiz mumkin. Buxoro shahri fan va madaniyat markazlaridan eng asosiysi hisoblanadi. Shayboniylar Buxoro shahrining ilm-fan, din va tasavvuf, madaniyat va san'at kabi an'analarini saqlab qolib uni yanada rivojlantirishga harakat qilishdi. Shayboniylar ham temuriylar kabi ilm-fan va madaniyatni rivojlantirishga alohida e'tibor beradi. Muhammad Shayboniyxon Buxoro madrasida ta'lim olish bilan birgalikda she'riyatga ham ixlos qo'ydi. Ubaydullaxon esa musiqa ilmiga katta rag'bat ko'rsatib, husnixat va san'at bilan shug'ullandi. Ushbu sulola vakillaridan yana biri Abdulatifxon (1540-1551-yillarda Samarqandda hokimlik qilgan) tarix, ilmi nujumborasida yuqori salohiyatga ega bo'lganligi manbalarda qayd etiladi. Abdulazizxon va Abdullaxon II tomonidan tashkil etilgan kutubxonalar o'z zamonasining eng yirik kitob xazinalaridan hisoblanib, ularda qo'lyozma asarlarni ko'chirish, ta'mirlash, bezak berish ishlari amalga oshirilgan. Bu holat jamiyatda temuriylar an'alarining ta'siri saqlanib qolganligini ko'rsatish bilan birga, ayrim shayboniylar hattoki shunga o'xshash harakat qilganlarini ham anglatadi. Buxoroda madrasalar qurishda o'ziga xos tajriba shakllangan bo'lib, ular nafaqat o'quv yurti, balki o'ziga xos me'moriy inshoot ham bo'lgan. Mir Arab (1535–1536), Abdulazizxon, Abdullaxon II madrasalari me'moriy yodgorlik sifatida hozirgi kungacha saqlanib qolgan. Abdullaxon II tomonidan (1589-1590) qurilgan madrasa xalq orasida Qo'sh madrasa nomi

²⁵⁴ Ma'naviyat yulduzlari (Markaziy Osiyolik mashhur siymolar, allomalar, adiblar). Nashrga tayyorlovchi va mas'ul muharrir Xayrullaev M. T.: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1999. –B.262

²⁵⁵ Ahmedov B. O'zbekistonning atqoli tarixshunos olimlari. T.: Cho'lpon, 2003. – B.90.

bilan ataluvchi majmuaning shimoliy qismida joylashgan. O'z davr me'morchiligining yetuk namunasi bo'lgan bu madrasa Buxoro me'morchiligining XVI asrda erishgan barcha ijodiy yutuqlarini namoyish etadi.²⁵⁶

Shayboniylar davrida madrasalarda berilgan ta'lim unchalik ham qoniqarli emasdi. Madrasalarda islom ilmlariga katta e'tibor berilar edi. Tarixdan tashqari boshqa ijtimoiy fanlar, xususan, tabiiy fanlar e'tibordan chetda qolgandi. Islom ilmlariga ko'proq e'tibor qaratishning asoslari xuddi mana shu davrlarga to'g'ri keladi. Bu asrga qadar Movorounnahr madrasalari jamiyatda o'z o'rniga ega bo'lgan va Farobiy, Beruniy, Ibn Sino kabi mashhur olimlar shu yerdan yetishib chiqqan edi. Ammo, shunday taxmin borki, XVI asrda Safaviylar davlatining paydo bo'lishi katta ehtimol bilan bu davrning yagona ilm markazlari bo'lgan madrasalarga qattiq ta'sir ko'rsatdi va sunniy mazhab e'tiqodining shia mazhabiga qarshi tura olishi uchun islomiy ilmlarga katta e'tibor qaratildi. Bu davrda madrasalarda diniy ilmlar o'rgatilgan bo'lsada, yuqorida keltirilgan sabablar tufayli dunyoviy ilmlarga bo'lgan e'tibor avvalgi davrlarga nisbatan ancha ortda qolib bordi. Matematika va boshqa tabiiy fanlar faqatgina oddiy hisob-kitoblardan iborat edi. Ayniqsa, texnik bilimlarning yetishmasligi kuchli bir davlat tuzulmasini yaratishga to'sqinlik qilardi va bu holat dushmanlar tomonidan davlatning ishg'ol etilishini osonlashtirar edi. Ammo shunday bo'lsada, diniy bilimlar bilan bir qatorda dunyoviy bilimlarni rivojlantirishga harakat bo'lgan, Manbalarda bu davrda ham Ulug'bek asos solgan Fanlar akademiyasi faoliyati davom etganligi hamda Ulug'bek akademiyasi an'analari davom ettiruvchi fidokor olimlar yetishib chiqqanligi qayd qilib o'tiladi. Jumladan, XVI asrda ham Ulug'bek akademiyasi faoliyat yuritganligini Muhammad Olim Shayx o'zining "Lamahot" asarida Shayx Xudoydot Valiyning hayoti va faoliyatiga ba'ishlangan qismida keltirilgan quyidagi fikrlar ham tasdiqlaydi: "Shayx Xudoydot Valiy talabalik yillarida Samarqandga borib, Mirzo Ulug'bek madrasasi yonidan o'ta turib, bu yerda falakiyotdan bahs qilayotgan bir guruh talabalarni ko'radi. U talabalar bahsiga quloq tutib, ularga havas bilan qarab turadi."²⁵⁷ Zayniddin Vosifiy ham 1513-yili Samarqandda bo'lgan vaqtida ko'rgan voqealarini shunday keltiradi: "Ko'chkunchixon (1510-1530) o'z hukmronligi davrida olimlar va ma'rifatparvarlarni hurmat qilishni eng birinchi vazifasi deb hisoblar edi. U hukmronlik qilgan davrda barcha madrasalar, nonaqohlar, masjidlar va diniy muassasalar qaytadan tiklandi. Ulug'bek madrasasi va xonaqosiga 10 ta mudarris tayinlandi, ulardan biri Ashirkalon edi. Shayboniixon madrasasiga esa 4 ta mudarris tayinlandi va ular orasida mavlono Xo'jagi ham bor edi"²⁵⁸

O'rta Osiyo xonliklari ichida Buxoro xonligi maktab, madrasalarning ko'pligi bilan alohida ajralib turgan. XVI asr ikkinchi yarmida Buxoroning poytaxt maqomiga ega bo'lishi natijasida bu yer nafaqat siyosiy, balki iqtisodiy va madaniy markaz sifatida ham yuqori nufuzga ega bo'ldi. Shu bois Buxoro dunyoning turli davlatlaridan kelib ta'lim oladigan va ijod qiladigan shaharlardan biriga aylandi.. Islomning aholi o'rtasida mavqeyini mustahkamlash, diniy va dunyoviy bilimlarni o'rgatish, aholining ma'naviy qiyofasini shakllantirishda XVI asrda ham oldingi asrlarda bo'lgani kabi maktab va madrasalar muhim o'rin tutgan. Bu o'rinda O'rta Osiyo xonliklarining turli shahar va markazlarida aholining savodxonligini oshirish maqsadida masjidlar va xonaqohlar huzurida ham o'ziga xos maktablar tashkil qilinganligini alohida qayd etib o'tish lozim. Bu madrasalarda nafaqat mahalliy, balki Markaziy Osiyoning turli hududlaridan bo'lgan talaba va mudarrisarlarni uchratish mumkin edi. O'rta Osiyoning markaz shaharlari hisoblangan

²⁵⁶ Hamidov H. XVI-XIX asrlar yurtimiz madaniyati tarixidan lavhalar. –T.: Fan, 2009, -B.70.

²⁵⁷ Muhammad Olim Shayx Azizon. Lamahot. Yassaviya tariqati pirlari maqomoti. Forschadan K.kattayev va A.Narzullayevlar tarjimasini. Samarqand, 2007,- B.86.

²⁵⁸ Zayniddin Muhammad Vosifiy. Badode ul vaqoe. Fors tilidan N.Norqulov tarjimasini. T.: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1979.-B.27-28.

Samarqand va Buxoro madrasalarida so'nggi o'rta asr jamiyatining ko'zga ko'ringan vakillari, hukmdorlar, amaldorlar, ulamoyu fuzalolar Qur'on, fiqh, hisob, handasa kabi fanlardan ilm oldi. Xususan, Muhammad Shayboniyxon Movorounnahrni qo'lga kiritgunga qadar Buxoro madrasalarida qiroat ilmidan saboq olganligi va ushbu sohani mukammal egallaganligi aytib o'tilgan. Demak, Buxoro Dashti Qipchoq aholisi uchun ham ilm-fan va diniy markaz hisoblanib, shu yerda aholi uchun din ulamolari tayinlangan. Ko'chmanchi aholi ayrim diniy masalalar bo'yicha buxorolik ulamolarga ham murojaat qilishgan. Madrsalarda odatda uch xil ilm o'qitilgan. Ulardan birinchisi huquq va ilohiyot, ya'ni diniy ilmlar, ikkinchi arab tili va uchinchi hikmat edi. Birinchi ilm tarmog'i bo'lgan diniy ilmlarda tafsir, hadis, fiqh, usul-ul fiqh, kalom ilmi kabi darslar o'qitilgan. Madrasalarda o'qitiladigan ilmlarning ikkinchisi arab tili bo'lib, islom dini ta'limotining asosiy manbasi bo'lgan Qur'oni Karim arab tilida bo'lgani uchun, bu tilni o'rganish zarur edi. Arab tili fanida talabalar "Qomus", al-Javhariyning "as-sihoh", al-Bayhaqiyning "Toj ul-masodir fil-lug'a", "Sura va fillug'a" kabi asarlardan lug'at bilan ishlash darslarini o'rganishgan. Sarf ilmiga aloqador asarlardan arabcha grammatika darslarini, nahv ilmiga aloqador bo'lgan "Qofiya" va uning sharhlaridan arabcha talaffuz qoidalarini, aruz ilmi orqali shariyat olamini, "Risolayi Andalusiy" nomli asardan qofiya ilmini, "Tarixi Iskandariya", Ibn Xallikon qalamiga mansub "Vafoiyat ul-ayon va anbou abnaiz-zamon" va "Tarixi jahonkusho" kabi asarlardan tarix ilmini o'rganishgan. Xunjiy o'z asarida eslatib o'tgan, Mavlono Tojiddin Ahmadga (1334-1413) oid bo'lgan va sulton Boyazidga taqdim etilgan "Iskandarnoma" asarining tarix ilmi nuqtayi nazaridan qanday ahamiyatga ega bolganligini aytib o'tish maqsadga muvofiqdir. Shayboniyxon va undan keyin kelgan sultonlar bu kitobdan ilhom olishgan. Mazkur asarning Shayboniyxon uchun juda ta'sirli bo'lgan jihati Iskandarning bolaligi va undan keying hayotida ham sharq, ham g'arb o'lkalarini bosib olishda asosiy rol o'ynagan xislatlariga oid ma'lumotlarning mavjudligidir. Shayboniyxon o'zining harbiy yurishlari chog'ida ham bu asarni yonida olib yurardi. 1505-yilda Muhammad Solih tomonidan yozilgan bir bayt "Iskandarnoma" va Iskandarning qanday ta'sirga ega bo'lganini ko'rsatib beradi: "*Ular aytdilarku, bu Shayboniyxon bo'lsa kerak, Yo'q, Yo'q! Balki, u ikkinchi Iskandar bo'lsa kerak*"²⁵⁹ Madrasalarda o'qitiladigan oxirgi dars hikmat edi. Talabalar bu mavzu bo'yicha quyidagi kitoblarni o'qishgan: Abdurahmon Jomiyning "al-Fovoid uz-Ziyoyiya" asariva uning sharhlar, Aristotelning "Kategoriyalar" nomli asarining No'mon tomonidan qilingan sharhi. Shuningdek, Ali ibn Umar al Kotibiy al-Qazviniy tomonidan yozilgan "Ash-shamsiya", "Hoshiyayi sayyid sharif al-Jurjoni", "Hoshiyayi Abdulhakim Lohuriy", Mullo Ahmad, Husomuddin, at-Taftazoniyning "Tahzib ul-mantiq val-kalom" nomli asari va uning sharhlari, "Sullam ul-ulum" asari va uning sharhlari o'qitilgan. Shayboniylar davrida madrasalarda islom ilmlarida faoliyat olib borgan ko'plab olimlarni ko'rish mumkin. Buning sabablari qatorida, birinchi navbatda, Movorounnahr mintaqasining kuchli ilmiy an'anaga ega ekanligini aytishimiz mumkin.²⁶⁰ Bu yerdagi ilmga bo'lgan ishtiyoq tarixda bo'lgani kabi shayboniylar davrida ham musulmon jamiyatida katta ahamiyatga ega edi. Masalan, o'z zamonasining olimlarida Sahmsiddin Muhammad Ko'hisoniyning "Muxtasar ul-viqoya" nomli fiqh kitobiga yozgan "Jomi ur-rumuz" nomli sharhi nafaqat Turkistonda, balki ko'pgina islom mamlakatlaridan katta shuhrat qozongan. Bu davrda islom ilmlarida olimlarning ko'p bo'lishiga yana bir sabab shundaki, Muhammad Shayboniyxon davrida safaviylar Hirot shahrini egallab olishib, xalqqa zulm o'tkazishadi, natijada olimlarning ko'pchiligi shaharni tark etib, shayboniylar poytaxti bo'lgan Buxorodan pahoh topishga majbur bo'lishadi. Safaviylar zulmidan qochib shayboniylardan panoh topgan va bu yerdagi madrasalarda

²⁵⁹ Muhammad Solih. Shayboniynoma, - T.: Abdulla Qodiriy nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1989. – B.128

²⁶⁰ Abdulqodir Majid. Shayboniylar davlati. Turk tilidan Iqboljon Usmon tarjiması. Nasim Kutub.2024.-B.525.

mudarrislik qilgan olimlar orasida Mavloni Ibrom Jaloliddin Davvoni, Mullajon Sheroziy va Mullo Yusuf Qorabog‘iy kabi shaxslarni sanab o‘tish mumkin. Kamoliddin Binoiy (1453-1512), Muhammad Solih, Mushfiqiy (1525-1588) kabi shoirlar, tarixchi va adabiyotchilarni eslatib o‘tish mumkin. Shu bilan birga bu shaxslar Hirot madaniy muhitini Movorounnahrda yanada keng yoyilishiga va bu yerda mahalliy madaniyatining yangicha ko‘rinishida rivojlanishiga xizmat qildi.²⁶¹

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, XVI asr Buxoro xonligida ilm-fan va madaniyati, ayniqsa moddiy madaniyat sohasida bir qancha ishlar olib borilgan. XVI asrning birinchi yarmida O‘rta Osiyo xonliklari shaharlarida ko‘plab maktab, madrasalar mavjud bo‘lib, ular aholining savodxonligini oshirish, turli dunyoviy va diniy bilimlarni egallashlari uchun asosiy markaz vazifasini o‘tagan. Bu markazlar o‘rta asr jamiyati turli ijtimoiy guruhlariga mansub aholi vakillarining sa‘y – harakatlari tufayli rivojlanib borgan va jamiyat madaniy-ma‘naviy tarqqiyoti uchun xizmat qilgan. Maktab, madrasa, masjid va xonaqohlar qurulishi nafaqat hukmdorlar, balki, o‘z davrining yirik din vakillari tomonidan ham amalga oshirilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Abdulqodir Majid. Shayboniylar davlati. Turk tilidan Iqboljon Usmon tarjimasi. Nasim Kutub nashriyoti. 2024.
2. Qandaharov A. Buxoro xonligi va unda Karmanalik shayxlar faoliyati. T.: “Tafakkur qanoti” nashriyoti, 2018.
3. Ma‘naviyat yulduzlari (Markaziy Osiyolik mashhur siymalar, allomalar, adiblar). Nashrga tayyorlovchi va mas‘ul muharrir Xayrullaev M. T.: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1999. –B.262
4. Ahmedov B. O‘zbekistonning atoqli tarixshunos olimlari. T.: Cho‘lpon, 2003. – B.90.
5. Muhammad Solih. Shayboniynoma, - T.: Abdulla Qodiriy nomidagi adabiyot va san‘at nashriyoti, 1989.
6. Hamidov H. XVI-XIX asrlar yurtimiz madaniyati tarixidan lavhalar. –T.: Fan, 2009.
7. Muhammad Olim Shayx Azizon. Lamahot. Yassaviya tariqati pirlari maqomoti. Forschadan K.kattayev va A.Narzullayevlar tarjimasi. Samarqand, 2007.
8. Zayniddin Muhammad Vosifiy. Badode ul vaqoe. Fors tilidan N.Norqulov tarjimasi. T.: G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san‘at nashriyoti, 1979.
9. Hofiz Tonish al-Buxoriy. Abdullanoma. (Sharafnomayi shohiy). Birinchi kitob. /Fors tilidan S.Mirzaev va Y.Hakimjonovlar tarjimasi. Izohlar muallifi B.Ahmedov. –T.: Sharq, 2000.
10. Mirmuhammad Amin Buxoriy. Ubaydullanoma. -T.: FAN, 1957.
11. Abdusattor Jumanazar. Buxoro xonligi ta‘lim tizimi tarixi.-T.:Akademnashr, 2017.

O‘ZBEKISTON SSRNING AFRIKA MAMLAKATLARI BILAN SPORT SOHASIDA OLIB BORGAN MADANIY ALOQALARI

Boboqulov Oxunjon Axmat o‘g‘li
–Buxoro Davlat Pedagogika
Instituti o‘qituvchisi

Annotatsiya: O‘zbekiston sport tashkilotlari respublikaning Osiyo, Afrika, Yaqin va O‘rta Sharq mamlakatlari bilan aloqalarini yanada kengaytirishga va rivojlantirishga katta ahamiyat beradi. Sovet Ittifoqidagi sport birlashmalarining xalqaro aloqalari jahon xalqlari bilan madaniy aloqalarning kengayishiga, demokratik sport harakatlari birligini mustahkamlashga xizmat qildi.

²⁶¹ Qandaharov A. Buxoro xonligi va unda Karmanalik shayxlar faoliyati. T.: “Tafakkur qanoti” nashriyoti.2018.- B.40-57

<i>Murodova Dilrabo Shomurodovna, Muxtorova Saodat Mustaqim qizi</i>	<i>Turkiston muxtoriyati — milliy davlatchilikning dastlabki tajribasi.....</i> 628
<i>Sayfiddinov Doston</i>	<i>Tarixchi olim Dono Ziyoyeva ilmiy asarlarida Buxoro tarixi masalalari</i> 630
<i>Sharipova Marjona Ravshan qizi Utayeva Feruza Xolmamatovna</i>	<i>Mustaqillik yillarida o'zbekistonni g'arbiy yevropa mamlakatlari bilan diplomatik aloqalari.....</i> 633
<i>Nargiza Isomiddinova Xusniddin qizi Feruza Bobojonova Xayratovna</i>	<i>Buxoro xonligida shayboniylar davrida ilm fan taraqqiyoti.....</i> 636
<i>Boboqulov Oxunjon Axmat o'g'li</i>	<i>O'zbekiston SSRning afrika mamlakatlari bilan sport sohasida olib borgan madaniy aloqalari</i> 640
<i>Sulaymonov Bexruzjon Halim o'g'li</i>	<i>Xiva xonligida iqtisodiy munosabatlar</i> 643
<i>Boboqulov Oxunjon Axmat o'g'li</i>	<i>O'zbekistonning afrika mamlakatlari bilan paxtachilik sohasidagi aloqalarining tadrijiy rivojlanishi</i> 647
<i>Oromova Munisa Jamshid qizi</i>	<i>Ornitonim" lmg asosida shakllangan o'zbek xalq paremlarida mo'tadil ma'no ifodalanishi</i> 650
<i>Jo'rayev Isomiddin Ismoilovich</i>	<i>Buxoro oblastida qishloq xo'jalik mahsulotlar yetishtirish (1965-1985-yillar misolida)</i> 652
<i>Axmatova Mohigul Ergash qizi Shodmonova Barchinoy Shuhrat qizi</i>	<i>O'zbekiston sharoitida qishloq xo'jaligi va turizm uyg'unlashuvi: amalga oshirish mexanizmlari</i> 654
<i>Rajabova Dilbar Ixtiyor qizi</i>	<i>O'zbekistondagi sanoat korxonalarida innovatsion muhitning rivojlanish holati tendensiyalari</i> 656
<i>Tag'iyev Alijon</i>	<i>Vaqf hujjatlari qimmatli tarixiy manba sifatida</i> 659
<i>Teshayev O'lmasjon Isomiddin o'g'li</i>	<i>Talabalarda kasbiy mahorat shakllantirishda muloqotning ahamiyati</i> 662
<i>U.S.Xamroyeva</i>	<i>O'zbekiston oliy ta'lim muassasalari raqobatbardoshligini oshirishda marketing tadqiqotlarining ustuvor yo'nalishlari</i> 666
<i>Murodova Madinabonu Ilhom qizi</i>	<i>Direct costing tizimining zamonaviy korxona moliyaviy boshqaruvidagi ahamiyati</i> 669
<i>Raxmatulloyev Umid</i>	<i>Sovet ittifoqi davrida o'zbek mehnatkashlarining ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli (1920-1935- yillar).....</i> 671
<i>Sultonov Shahzod Shavkat o'g'li</i>	<i>Global iqlim o'zgarishining o'zbekistonga ta'siri va uning yumshatish yo'llari</i> 673
<i>Xikmatov A'lambek Ayubovich</i>	<i>The importance of islamic finance in the development of the financial system of Uzbekistan</i> 675
<i>Xurramov Ortikjon Kayumovich Shuxratova Maxbuba Jamshid qizi</i>	<i>Turizmni rivojlantirishda ijtimoiy medianing asosiy muammo va imkoniyatlari</i> 681
<i>Ubaytova Mohitobon Jo'ra qizi</i>	<i>O'zbekistonda moliyaviy hisobot xalqaro standartlari (mhxs)ni qo'llash muammolari va takomillashtirish yo'llari.....</i> 685
<i>To'xtayev Ulug'bek O'tkir o'g'li</i>	<i>Avestoda yer va suvni muhofaza qilish g'oyalari va ularning tarixiy ahamiyati</i> 687